

**TA'LIM MUASSASALARI VA TASHKILOTLARINI  
«UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASI» ASOSIDA  
MANAVIY –MAR'IFIY TARBIYA ISHINI YO'LGA QO'YISH ISHLARI.**

**Rahmonqulova Xolida Bosimovna  
Jizzax davlat pedagogika instituti  
o'qituvchisi**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassalari va tashkilotlarida "Uzluksuz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida ma'naviy –ma'rifiy tarbiya ishini yo'lga qo'yish ishlari haqida bayon qilingan

**Kalit so'zlar:** Uzluksiz ta'lim, konsepsiya, ma'naviy, ma'rifiy, tarbiya, indikator, samaradorlik, oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik

**Аннотация:** В данной статье описывается работа по налаживанию духовно-просветительской работы в образовательных учреждениях и организациях на основе «Концепции непрерывного духовного образования»

**Ключевые слова:** Непрерывное образование, показатель, концепция, духовность, просвещение, образование, эффективность, результативность, ответственность, толерантность, трудолюбие правовая культура, инновационное мышление .

**Annotation:** This article describes the work on the establishment of spiritual and educational work in educational institutions and organizations based on the "Concept of continuous spiritual education"

**Key words:** Lifelong education, concept, spirituality, enlightenment, education, indicator, efficiency, effectiveness, responsibility, tolerance, legal culture, innovative thinking, diligence.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdaagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol shaxs qilib tarbiyalash va ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bu ishni to‘g‘ri yulga quyish va tashkil etish avvalo talimning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha talimdan boshlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga manaviy tarbiya berishni uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, oilada bo‘lajak onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, keyinchalik esa go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni to‘g‘ri belgilab olish lozim.

Ma’naviy-axloqiy barkamollik - bu jamiyat tomonidan qo‘yilayotgan muhim talablardan biridir.

Maktab yoshidagi bolalarda Vatanga bo‘lgan sadoqat, irodalilik, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni maktabgacha yosh davridan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirib boriladi.

Oilada ayolarni homiladorlik davridan boshlab, 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda oila kattalari, ota-onalar, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi yulga qo‘yish va uni hayotga joriy etish yaxshi natija beradi.

Oilada ota-onalar farzand tarbiyasi bo‘yicha o‘zining pedagogik bilimlarini va pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishib borishi uchun “ **Onalar maktabi**” yoki “**Ota-onalar Universiteti**” kabi tashkil etilgan o‘quv kurslari hamda markazlarga borish muhim hisoblanadi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asosida aholi o'rtasida jumladan homilador ayollar, yosh onalar, qaynonalar o'rtasida ijtimoiy-pedagogik, psixologik bo'lgan turkum uchrashuvlar, seminarlar tashkil etish kerak.

Mahallada oilada mehr-oqibat, odamiylik, ota-onalarga hurmat va sadoqat kabi fazilatlarni mustahkamlash, farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibor va mas'uliyatni kuchaytirishga qaratilgan «**Oilada farzand tarbiyasiga e'tibor**», «**Mening farzandim — Vatanim faxri!**» mavzularida suhbatlarni uyushtirish va uni tashkil etish lozim.

Talim muassasalarida o'g'il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g'urur, qat'iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan qiziqarli va tasir kuchiga ega bo'lgan kinofilmlar, yosh bolalar uchun esa milliy qo'g'irchoq va multiplikatsion filmlar tomosha qilishni ta'minlash ishini yulga qo'yish kerak.

Bugungi kunda bolalar va yoshlarni ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni emiruvchi illatlar, ularni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga karshi sog'lom dunyokarashni ham shakllantirgan holda uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali tarzda yo'lga qo'yishni taminlash lozim.

Barcha talim tashkilotlarida uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etish faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan tizimli monitoring olib borilishini ta'minlash ham ish sifatini natijasini ko'rsatib beradi.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni Vatanga bo'lgan sadoqat hamda burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar ular ongida shakllantirish lozim. Buning uchun dastur mazmuniga mos ravishdagi o'tkaziladigan turli tadbirlar va faoliyatlarda pedagog tarbiyachi o'z oldiga maqsad qo'ygan holda amalga oshirishi kerak. Buning natijasida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida hech qanday tafovut namoyon bo'lmaydi, aksincha bu esa kelajakda ularning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida katta yordam beradi.

Ma'naviy tarbiya sohasida tarbiyachilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar juda ham kam lekin etarli emas.

SHu munosabat bilan «Uzluksiz ma'naviy tarbiya» konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining I — XI sinflari uchun «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari», «Dinlar tarixi» fanlarini birlashtirgan holda «Tarbiya» fanini joriy qilinishi ham bunga misol bo'la oladi.

Bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglar- ning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish muhim sanaladi.

Oilada, ta'lim muassasalari, maktabgacha talim davlat va nodavlat tashkilotlari va ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to'g'risida bilimlar shakllanadi, ularni o'rganish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy fazilatlarining avloddan-avlodga bezavol o'tib borishi ta'minlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi . O'z.R. VM 1059. 31.12.19

Toshkent

2. Buronova, S. (2021). МАҲАЛЛА, ОИЛА ВА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ҲАМКОРЛИГИНИНГ АҲАМИЯТИ.

Мақтабгача таълим журнали.

3. NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TALIMNI TASHKIL

ETISHNING MAZMUN MOHIYATI: Мақтабгача таълим журнали, D Toshtemirova – 2021

4. SH.SH.Olimov. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2015, 228 bet.
5. Qilichova, M. X. (2021). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA INTEGRATSION YONDASHUVNING MAZMUNI *Academicresearchineducationalsciences*, 2(10), 917-921.
6. *Hamrayeva, E. (2021). BOLANING RIVOJLANISH SOHALARI KOMPETENSIYALARI. Chirchiq Davlat Universiteti.*
7. Suyarova, A. (2021). O'YIN FAOLIYATI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHNING ASOSIY SHAKLI SIFATIDA. *Мақтабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3512>
8. *Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent . 2018 yil*